

**Tuman hokimi K.N.Xushbakoving “Istiqlol” va “Tadbirkor” mahallalarida 2026 yil mart oyida o‘tkazilgan “Ijtimoiy profilaktika haftaligi” yakuni, natijalari va tahlili to‘g‘risida**  
**AXBOROTI**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 5 yanvardagi “Respublika mahallarida xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-1-son qaroriga muvofiq mahalliy hokimliklar rahbarligida mahallalarda “Ijtimoiy profilaktika haftaligi”ni o‘tkazish amaliyoti joriy qilindi.

Mazkur qarori ijrosini ta‘minlash hamda profilaktik tadbirlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida viloyat hokimining 2026 yil 27 fevralda 52-7-0-F/26-son farmoyishi qabul qilingan bo‘lib, farmoyishga asosan 2026 yil mart oyida tumandagi “Istiqlol” va “Tadbirkor” mahallalarida “Ijtimoiy profilaktika haftaligi” o‘tkazildi.

“Ijtimoiy profilaktika haftaligi” davomida ushbu mahallalarda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish asosiy vazifa etib belgilab olindi:

1. Ijtimoiy profilaktika ob‘yektlari bilan ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish uchun xulosalarni rasmiylashtirish, ijrochilarga yo‘naltirish va ijrosini ta‘minlash;

2. Fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, sog‘lom turmush tarziga jalb etish bo‘yicha ta‘sirchan targ‘ibot kompaniyalarini olib borish;

3. Aholining ijtimoiy muammolarini aniqlash va hal etish uchun hokimlarning shaxsiy qabullarini o‘tkazish;

4. Aholi bandligini ta‘minlash, tadbirkorlikka jalb etish, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratish maqsadida mehnat yarmarkalari, huquqiy maslahatxonalar tashkil etish;

5. Targ‘ibot kompaniyalariga taniqli shaxslar, xonandalar, sportchilar va boshqa faollarni keng jalb etishni ta‘minlash.

“Ijtimoiy profilaktika haftaligi” davomida “Istiqlol” va “Tadbirkor” mahallalarida tuman hokimligi va tegishli tashkilotlar tomonidan quyidagi tadbirlar o‘tkazildi.

**Tuman hokimligi** tomonidan:

**Istiqlol mahallasida** 2026 yil 6 mart kuni tuman hokimi boshchiligida sayyor qabul o‘tkazildi va unda murojaatlar soni oshgan barcha soha vakillari ishtirokida o‘tgan davrda tushgan murojaatlar yechimi muhokama qilindi.

Shuningdek, sayyor qabulda 15 ta murojaat kelib tushdi va ularning 6 tasi tadbirkorlik va bandlik, 2 tadan oqova suv masalasi, xizmat ko‘rsatuvchi shirkat faoliyatidan norozilik, oilaviy nizo, sog‘ligini tiklash, subsidiya asosida uy-joy olish, farzandini bog‘chaga joylashtirish, yo‘l ta‘miri hamda uy-joy hujjatlarini shakllantirish masalalarida murojaatlar kelib tushib, korxonalar hamda tashkilotlariga ijro uchun jo‘natildi hamda nazoratga olindi.

**Tadbirkor mahallasida** 2026 yil 15 mart kuni o‘tkazilgan sayyor qabulda 17 ta murojaatlar yelib tushdi. jumladan 4 ta murojaat tadbirkorlik hamda bandlik, 2 tasi

yerga oid masalalar, 1 tadan oilaviy nizo, oqova suv masalasi, mahalla xodimlari faoliyatidan norozilik, 2 ta uy-joy ta'miri uchun yordam, 4 ta ko'chasini shag'allashtirish masalalarida murojaatlar kelib tushib, tegishliligi bo'yicha tuman korxonalar hamda tashkilotlariga ijro uchun jo'natildi.

**Tuman adliya bo'limi** tomonidan:

**Istiqlol mahallasida** firibgarlik jinoyatini oldini olish bo'yicha 130 ta infografika, buklet va flayerlar tarqatildi. Shuningdek, aholi, shu jumladan, voyaga yetmaganlar, xotin-qizlar, tarbiyasi og'ir yoshlar va probasiya hisobidagi shaxslar o'rtasida manzilli targ'ibot tadbirlari amalga oshirildi.

“Mening mahallamda jinoyat bo'lmaydi” dasturiga muvofiq targ'ibot va “Huquqiy targ'ibot kuni” tadbirlari amalga oshirildi.

Mahallada uyma-yurib fuqarolarning huquqiy muammolarini o'rganish natijasida 7 ta fuqaroga huquqiy tushuntirish berildi, 2 ta fuqaroning muammosi ijroga qaratildi.

**Tadbirkor mahallasida** 120 ta infografika, buklet va flayerlar tarqatildi. Aholi, shu jumladan, voyaga yetmaganlar, xotin-qizlar, tarbiyasi og'ir yoshlar va probasiya hisobidagi shaxslar o'rtasida manzilli targ'ibot tadbirlari amalga oshirildi.

“Mening mahallamda jinoyat bo'lmaydi” dasturiga muvofiq hamda “Huquqiy targ'ibot kuni” tadbirlari amalga oshirildi.

Mahallada uyma-yurib fuqarolarning huquqiy muammolarini o'rganish natijasida 6 ta fuqaroga huquqiy tushuntirish berildi, 3 ta fuqaroning muammosi ijroga qaratildi.

**Tuman Sog'liqni saqlash bo'limi** tomonidan:

**Tadbirkor mahallasida** tadbir davomida 5 nafar doimiy spirtli ichimlik ichib yuradigan fuqarolar xonadoniga borib tibbiy profilaktika o'kazildi, patronaj hamshiralar va vrachlar tomonidan tibbiy ko'rik o'tkazilib, sog'lomlashtirish uchun tibbiy maslahatlar berildi.

**Istiqlol mahallasida** 12 nafar doimiy spirtli ichimlik ichib yuradigan fuqarolar xonadoniga borib tibbiy profilaktika o'kazildi, patronaj hamshiralar va vrachlar tomonidan tibbiy ko'rik o'tkazildi.

*Jumladan Abdullayev Abrorjon Olimjonovich, Abdullayev Olim Jalilovich, Boymenov Nurbek Azamat o'g'li, Muminboyev Iskandar Muminbayevich, Norqulov Yusuf Sadullayevich, Pardayev Suxrov Xaydarovich, Rajdabov Suxrov Murodovich, Raxmanov Shuxrat Erkinovich, Saparov Temur Rustamovich, Turayev Azizjon Ilxomovich, Tursunov Zoxidjon Movlanovich, Xaitov Erkin Qurbonovich, Xalilov Xusniddin Abdulkarimovich, Axatov Elmurod, Nurmurodov Nurali va Xadjayev Anvar Shamsiyevichlar tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, sog'lomlashtirish uchun tibbiy maslahatlar berildi.*

**Inson ijtimoiy xizmatlar markazi** tomonidan:

**Tadbirkor mahallasida** profilaktika inspektori bilan birga 2 ta qo'shma xulosa tuzilib, barchasi yakunlangan, 3 nafar fuqarolarga bola nafaqasi tayinlangan, 1 nafar fuqaro nogironlikka chiqarildi, 8 nafar fuqarolarga RTV va POM maxsulotlari berildi, 2 nafar yakka yolg'izlarga bepul dori-darmonlar ajratildi, 6 nafar fuqarolarga oziq-ovqat mahsulotlari, 2 nafar fuqaroga kiyim-kechak olib berildi va 2 nafar fuqaroga vasiylik tayinlandi.

**Istiqlol mahallasida** 14 ta qo'shma xulosa tuzilib, barchasi yakunlangan, 5 nafar fuqarolarga bola nafaqasi tayinlangan. 2 nafar fuqaro nogironlikka chiqarilgan,

10 nafar fuqarolarga RTV va POM maxsulotlari berilgan, 7 nafar yakka yolg'izlarga bepul dori-darmonlar ajratildi, 8 nafar fuqarolarga oziq-ovqat mahsulotlari olib berildi va 3 nafar fuqaroga vasiylik tayinlandi, bir nafar fuqaro uyda qarab turish xizmatiga jalb qilindi.

Tuman Ichki ishlar bo'limi tomonidan:

**Tadbirkor mahallasida** IIB xodimlari va mahalliy hokimiyat vakillari bilan aholi xonadonlariga borib, xonadonbay o'rganish orqali ularning muammolari aniqlanib, tegishliligi bo'yicha hal qilishlik uchun profilaktika inspektori tomonidan 19 nafar fuqaroga nisbatan "Ijtimoiy profilaktika" platformasida xulosalar berilgan. Jumladan, yoshlar yetakchisiga 9 ta, xotin-qizlar faoliga 1 ta, hokim yordamchisiga 6 ta, profilaktika inspektoriga 3 ta.

Xulosalar 2 ta band bo'lmagan ishsiz yoshlarga, 2 ta og'ir toifadagi yoshlarga, 7 ta xuquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan yoshlarga, 1 ta ajrim yoqasiga kelib qolgan va nizoli oilalarga, 6 ta band bo'lmagan doimiy daromadga ega bo'lmagan shaxslarga va 3 ta g'ayri ijtimoiy hulq atvorli shaxslarga berildi.

Bundan tashqari, mahalla hududida tozalash profilaktik tadbiri o'tkazilib, ilgari sudlangan, profilaktik hisobda turgan, spirtli ichimlikka ruju qo'ygan shaxslar, nizoli oilalar, otaliqqa olingan yoshlar jinoyat sodir etishga moyil hamda jinoyat qurboni bo'lish extimoili yuqori bo'lgan shaxslar bilan profilaktik ishlar olib borildi.

Mahalla hududida sayyor sud majlislari tashkil etilib, aniqlangan ma'muriy huquqbuzarlik holatlari bo'yicha huquqiy ta'sir choralari qo'llanildi.

**Istiqlol mahallasida** yashovchi 9 nafar fuqaroga nisbatan "Ijtimoiy profilaktika" platformasida xulosalar berilgan, jumladan yoshlar yetakchisiga 1 ta, xotin-qizlar faoliga 4 ta, ijtimoiy xodimga 4 ta.

Xulosalar 1 ta huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan yoshga, 1 ta ajrim yoqasiga kelib qolgan va nizoli oilaga, 3 ta muntazam tazyiq va zo'rvonlikka uchrab kelayotgan xotin-qizlarga, 1 ta og'ir ahvolga tushib qolgan va og'ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo'lgan shaxsga va 3 ta parvarishga muxtoj yolg'iz keksalarga berilgan.

Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan:

**Istiqlol mahallasida** 11 nafar o'quvchi, **Tadbirkor mahallasida** 4 nafar o'quvchi ichki ruyxatga olingan bo'lib, 21-maktab 11<sup>v</sup>-sinf o'quvchisi Saydullayev Jonibek va Saydullayev Quvonchbek vollyeybol tugragiga jalb qilingan, 10<sup>v</sup>-sinf o'quvchisi Hamraqulov Bobur matematika to'garagiga, 11<sup>v</sup>-sinf o'quvchisi Abduraimova Shabbona fizika fani to'garagiga jalb qilingan.

23-maktabning 6<sup>a</sup> sinf o'quvchisi Bobomurodov Alijon matematika fani, 7<sup>b</sup>-sinf o'quvchisi Abduraxmonov Sardor informatika fani, 8<sup>a</sup>-sinf o'quvchisi Juraqulov Og'abek ingliz tili, 8<sup>b</sup>-sinf o'quvchisi Ne'matattullayeva Farangiz biologiya fani, 9-sinf o'quvchisi Narzullayev G'ayrat ingliz tili, 11-sinf o'quvchisi Ravshanov Shaxriyor basketbol to'garagiga jalb qilingan.

22-maktabning 11-sinf o'quvchisi Faxriddinova Umida rustili, 27-maktab 10<sup>a</sup>-sinf o'quvchisi Juraboyeva Gulnoza ona-tili fani, 6<sup>d</sup>-sinf o'quvchisi Ne'matova Sevinch basketbol to'garagiga jalb qilingan.

27-maktab 9<sup>b</sup>-sinf o'quvchisi Eshniyozov Bexruz futbol to'garagiga, 11<sup>b</sup>-sinf o'quvchisi Raxmiddinov Elbek vollyeybol to'garagiga jalb qilingan.

#### Iqtisodiyot va moliya bo'limi tomonidan:

**Tadbirkor va Istiqlol mahallalarida** davlat byudjeti va "Tashabbusli byudjet" jamg'armasining mablag'lardan foydalanish hamda fuqarolar tomonidan "Ochiq byudjet" portalida tuman mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlari aks etgan hisobotni kuzatib borish to'g'risida targ'ibot ishlari olib borildi.

Tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagida bo'lgan fuqarolarga imtiyozli kreditlar va davlat dasturlari orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari yuzasidan tushuntirishlar berildi.

#### Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi tomonidan:

**Tadbirkor mahallasi**da profilaktika isneptori bilan birga 8 ta qo'shma xulosa tuzilib, barchasi yakunlangan, 12 nafar fuqarolarga imtiyozli kredit ajratilib, o'zini-o'zi band kilingan. Shundan, kambag'al oilalar reyestrda turgan fuqarolar 5 nafar, migratsiyadan kaytgan fuqarolar 1 nafar, ishsiz fuqarolar 6 nafar.

*Misol uchun, kambag'al oila reyestrda turuvchi Sh.Yaxshiboyevga naslli chorva uchun 50 mln so'm kredit mablag'i ajratilib, bandligi ta'minlandi.*

Bundan tashqari, 18 ta kambag'al oilalarga 14 turdagi jami 881 tup mevali daraxt ko'chatlari olib kelib berildi.

*Misol uchun, Z.Nomozov o'z tomorqasiga 60 tup mevali daraxt berilib, oilaga qo'shimcha daromad qilib berildi.*

1 nafar migratsiyadan kaytgan fuqaro kasb-hunarga yunaltirildi va 8 nafar fuqarolar doimiy ishga joylashtirildi.

**Istiqlol mahallasi**da 4 ta qo'shma xulosa tuzilib, barchasi yakunlangan, 14 nafar fuqarolarga imtiyozli kredit ajratilib, band kilingan. Shundan, kambag'al oilalar reyestrda turgan fuqarolar 6 nafar, migratsiyadan kaytgan fuqarolar 4 nafar, ishsiz fuqarolar 4 nafar.

*Misol uchun, kambag'al oila reyestrda turuvchi G.Jumayevaga xizmat ko'rsatish sohasi uchun 10 mln so'm kredit ajratilib, bandligi ta'minlandi.*

Bundan tashqari, kambag'al oilalar reyestrda turuvchi D.Quvondiqovaga 19 mln so'm mablag' evaziga ssuda asosida mototransport vositasi ajratilib, bandligi ta'minlangan.

2 nafar fuqaro kasb-hunarga yunaltirilgan, migratsiyadan kaytgan 4 nafar fuqaro bandligi ta'minlangan, 2 nafar fuqaro doimiy ishga joylashtirilgan.

#### Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi tomonidan:

**Tadbirkor mahallasi**da og'ir toifaga kirgan ishsiz yoshlar soni 3 nafarni tashkil etib, ulardan Akbarov Asilbek Asqadjon o'g'li muddatli harbiy xizmatga yo'naltirildi.

Bu esa uning ijtimoiy hayotga moslashuvi va mustaqil hayot kechirishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Qolgan 2 nafar yoshlar - Sayfullayev Fayoz Fazliddinovich va Rasulov Farruxjon Yozibekovichlar kasb-hunar o'rganishi uchun monomarkazga yo'naltirildi.

Mahallada 8 nafar yosh otaliqqa olingan bo'lib, ular IIB QB boshlig'i o'rinbosari T. Olimov va S. Abdixalikovga birlashtirilgan.

Jumladan, probatsiya hisobida turuvchi Sobirov Furqat Shavkatovichga ishlash uchun ruxsat olib berildi va doimiy ishga joylashtirildi. Hozirda ushbu yosh doimiy daromad topib kelmoqda.

Nomozov Lazizbek Faxriddinovich "Shamsinur" MCHJga doimiy ishga joylashtirildi.

**Istiqlol mahallasi**da og'ir toifadagi ishsiz yoshlar soni 3 nafarni tashkil etib, ular bilan individual ishlash rejasi ishlab chiqilgan.

Mazkur yoshlardan Ismoilov Azizbek Ilxomovich doimiy ish o'rniga joylashtirilgan, Turdiboyev Sanjar Sobirovich va Toshnazarov Ozodbek Nuriddinovichlar kasbga moyilligi o'rganilib, yoshlar ishlari agentligi tomonidan amalga oshirilayotgan turli loyihalarga jalb qilingan.

Mahalladagi 6 nafar otaliqqa olingan yoshlarga viloyat ichki ishlar boshqarmasi o'rinbosari U. Utayevga birlashtirilgan va rahbar tomonidan yoshlar bilan individual ishlash tizimi yo'lga qo'yilgan.

Jumladan, Muxammadjonov Husan Ruslan o'g'lining pasport olish uchun zarur bo'lgan davlat boji to'lovi qoplab berilgan, Yusupov Anvar Shuhrat o'g'li "Finikis" MCHJga doimiy ishga joylashtirilgan.

#### **Oila va xotin-qizlar bo'limi** tomonidan:

**Istiqlol mahallasi**da tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan 6 ta oilalarga, jumladan, Usmonova Laylo va Usmonov Akbar, Najimov Aziz va Bo'riyeva Yulduz, Boqiyev Otabeq va Toshpo'latova Rano, Eshquvvatov Bobobek va Qodirova Muattar, Ro'ziyev Xusniddin va Ro'ziyeva Qunduz, Ramazonova Sitara Alisherovnalarga ta'sir choralari qo'llanilgan.

Ishsiz 5 nafar xotin-qizlar, jumladan, Isoqulova Sevara, Sattarova Diana, Nazarova Marjona, Baxtiyorova Mohinur va Norkulova Feruza bandligi ta'minlangan.

Ishsiz hotin-qizlarning oilaviy muhitini o'rgangan holda ichki imkoniyatlardan foydalanib, yashash manzillarida kichik biznes (*6 nafariga tikuvchilik, 4 nafariga chorvachilik, 4 nafarini boshqa hizmat ko'rsatish sohalarida*) tashkil etish uchun tijorat kreditlari olishga amaliy yordam berildi.

#### **Mikrokredit bank tuman fililadi** tomonidan:

**Tadbirkor mahallasida** ishsizlikni kamaytirish, aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi daromadini oshirish maqsadida 10 nafar fukorolarga oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida 221 mln sum imtiyozli kreditlar, shuningdek, maxalla loyihasi dasturi doirasida 5 nafar fuqaroga 250 mln sum, Biznesga birinchi kadam dasturi doirasida 2 nafar fuqaroga 40 mln sum miqdorida kreditlar ajratib berildi.

**Istiqlol mahallasida** 5 nafar fuqarolarga oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida 50 mln sum imtiyozli kredit, shuningdek, maxalla loyihasi dasturi doirasida 4 nafar fuqaroga 200 mln sum, Biznesga birinchi kadam dasturi doirasida 2 nafar fuqaroga 30 mln so‘m kreditlar ajratib berildi.

“Ijtimoiy profilaktika haftaligi”ni tashkillashtirishda va qo‘yilgan vazifani bajarishda sustkashliklarga yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxslarga nisbatan tegishli ta’sir choralari qo‘llash hamda o‘z vazifasiga sidqidilgan yondashgan, aholini keng qamrab olgan tashkilotchilarni rag‘batlantirish bo‘yicha tegishli tashkilotlarga taqdimnomalar kiritib boriladi.

“Ijtimoiy profilaktika haftaligi” joriy yilning aprel oyida tumanning **“Yangiobod”** va **“Burqut”** mahalla fuqarolar yig‘inlarida o‘tkaziladi.

Samarqand viloyat hokimining 2026 yil 27 fevralda 52-7-0-F/26-son farmoyishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashi muhokamasiga kiritilmoqda.

**Paxtachi tumani hokimi**

**Q.Xushbakov**